

## JINOYAT HUQUQI FANI BO‘YICHA “BIR NECHA HUKM YUZASIDAN JAZO TAYINLASH” MAVZUSINI O‘QITISHNING NAZARIY VA AMALIY JIHATARI

Mamirov Ulug‘bek Zokirjonovich

Namangan viloyati yuridik texnikumi

“Mutaxassislik fanlari” kafedrasi o‘qituvchisi

1-darajali yurist

Telefon +99 (893) 407 76 77

Elektron pochta: [ulugbekzokirzonovic@gmail.com](mailto:ulugbekzokirzonovic@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada jazo tushunchasi, jazo tayinlash, retsidiv jinoyat, bir necha hukm yuzasidan jazo tayinlash qoidalari va jazo tayinlashning muhim ahamiyati haqida so‘z boradi.

**Kalit so‘zlar:** Jinoyat, jinoiy jazo, retsidiv jinoyat, bir necha hukm yuzasidan jazo tayinlash, mahkum, sud.

O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy yo‘nalishlardagi barcha islohotlar o‘z mohiyatiga ko‘ra inson manfaatlarini atroflicha ta‘minlashga qaratilgandir. Shu jumladan, jinoyat qonunchiligida amalga oshirilayotgan davlat siyosati ham birinchi galda har bir shaxs manfaatlarini qonun asosida odilona himoya qilishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan.

O‘zbekistonda davlat mustaqilligi sharoitida o‘tgan qisqa davr ichida jinoyat qonunchiligi borasida ham bir qator huquqiy islohotlar amalga oshirildi va bu islohotlar mohiyati jihatidan, yuqorida aytib o‘tilganidek faqat odillik tamoyiliga amal qiladi. Shu bilan birga, shaxsni jinoiy yo‘ldan qaytarish uchun ta’sir chorasi sifatida qo‘llaniladigan jzo jinoyatning xususiyati va ijtimoiy xavflilik darajasini, qilmishning sababini, yetkazilgan zararning xususiyati va miqdorini, aybdorning shaxsini hamda jazoni yengillashtiruvchi va og‘irlashtiruvchi holatlari hisobga olinadi. Bu borada, sud-huquq tizimini liberallashtirish dasturiga muvofiq 2021 yil 29-avgustda O‘zbekiston Respublikasi qonuni bilan Jinoyat, Jinoyat-protsessual, va Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodekslarga bir qancha qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritildiki, bular jinoyat va jinoyat-protsessual qonunlari hamda ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi qonuni, shu bilan birga jinoiy jazo va uni tayinlash masalalarini erkinlashtirish borasida qo‘yilgan jiddiy qadam bo‘ldi.



Jinoyat kodeksiga kiritilgan bir qator qo'shimcha va o'zgartirishlar jinoyat sodir etishda aybdor deb topilgan shaxslarga nisbatan tayinlanadigan jazolarni liberallashtirilishiga imkon yaratdi.

Nazariy jihatdan qaraganda jinoiy jazolarni liberallashtirish muammolari bir qator huquqshunos olimlarning tadqiqotlarida ham o'z ifodasini topgan.

Bir necha hukm yuzasidan jazo tayinlash – jazo tayinlashning maxsus tartibi bo'lib, shaxsga nisbatan muayyan jinoyat uchun hukm chiqarilganidan boshlab to asosiy va qo'shimcha jazolarni o'tab bo'lguncha yoki shaxs JK 60-moddasidagi asoslariga ko'ra yangi jinoyat sodir qilgan taqdirda sud aybdorga nisbatan bir necha hukm yuzasidan jazo tayinlash qoidalarini qo'llagan holda jazo tayinlaydi<sup>1</sup>.

Olimlarning bir necha hukm yuzasidan jazo tayinlash haqidagi fikrini quyidagi guruhlariga bo'lib tahlil qilamiz.

**Birinchi guruh**dagilar, bir qancha jinoyatning mustaqil turi sifatida bir necha hukmlar ayblov hukmi qonuniy kuchga kirgandan so'ng jazo to'liq o'talmaguniga qadar sodir etilgan jinoyatlar uchun tayinlanadi, deb ko'rsatadilar. Jumladan, S.G.Spivakning fikricha bir necha hukmlar retsidiv jinoyatchilikdan farq qiluvchi bir qancha jinoyat turi hisoblanadi. Bir qancha jinoyatlarning mustaqil turi sifatida bir necha hukmlar bo'yicha jazo tayinlash mahkumning sud tomonidan tayinlangan ayblov hukmi qonuniy kuchga kirgandan so'ng, biroq asosiy va (yoki) qo'shimcha jazo to'liq o'talmagan yoxud shartli hukm qilishda sinov muddati, jazoni o'tashdan muddatdan ilgari shartli ozod qilishda jazoning o'talmay qolgan qismi tugamay turib, jazoning ijrosi kechiktirilgan muddatda qasddan, shuningdek ehtiyotsizlikdan yangi jinoyat sodir etilishi bilan yuzaga keladi<sup>2</sup>. "Hukmlar majmui" tushunchasining o'zi bir qancha jinoyatlarning alohida shakli bo'lgani holda jinoyat-protsessiga mansub bo'lgan "hukm" tushunchasini aks ettirganligini, bunda bir qancha jinoyatning mazkur turini "jazoni to'liq o'tagunga qadar yangi jinoyat sodir etish" tarzida nomlash maqsadga muvofiqligini bayon qilinadi<sup>3</sup>.

**Ikkinchi guruh** olimlari bir necha hukm yuzasidan jazo tayinlash tushunchasiga JK 60-moddasi qoidalaridan kelib chiqib ta'rif beradilar. Xususan, H.Ochilovning ta'kidlashicha, "bir necha hukm yuzasidan jazo tayinlash deb, mahkum hukm chiqarilganidan keyin asosiy va qo'shimcha jazolarni to'la o'tamay turib, yangi

<sup>1</sup> М.Усмоналиев. Жазо тайинлаш. – Т.: ТДЮИ, 2003. – 92 б.

<sup>2</sup> Спивак С.Г. Назначение наказания по совокупности преступлений и совокупности приговоров. Диссертация ... кандидата юридических наук. – М., 2008. – С.21.

<sup>3</sup> С.Г.Спивак Назначение наказания по совокупности преступлений и совокупности приговоров. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата юридических наук по специальности: 12.00.08 – уголовное право и криминология; уголовно-исполнительное право. - Москва, 2007. – 10 с.



jinoyat sodir etsa, sud yangi hukm bo'yicha tayinlangan jazo muddatiga ilgarigi hukm yuzasidan o'talmay qolgan jazo muddatini to'la yoki qisman qo'shib jazo tayinlanishiga aytiladi"<sup>4</sup>.

Ushbu masala yuzasidan Q.Rozimova "mahkum hukm chiqarilgandan keyin jazoni to'la o'tamay turib, yangi jinoyat sodir etgan taqdirda jazo tayinlash bir necha hukm yuzasidan jazo tayinlash deb e'tirof etilishini qayd etadi. Bunday hollarda sud yangi hukm bo'yicha tayinlangan jazoga ilgari hukm yuzasidan o'talmay qolgan jazo muddatini to'la yoki qisman qo'shadi", deb yozadi<sup>5</sup>. V.V.Koryakovsev va K.V.Pitulkolarning ta'biri bilan aytganda, "bir necha hukmlar yuzasidan jazo tayinlash, ya'ni shaxs tomonidan birinchi hukm yuzasidan belgilangan jazoni o'tab bo'lmasidan turib, yangi jinoyatning sodir etilishidir"<sup>6</sup>.

N.I.Vetrovning fikriga ko'ra, jinoiy javobgarlikka tortilgan shaxs, mahkum unga nisbatan hukm chiqarilganidan keyin ammo hukmda ko'rsatilgan jazoni to'liq o'tamasdan, yangi jinoyat sodir etgan taqdirda bir necha hukmlar yuzasidan jazo tayinlash institutining qo'llanilishi uchun asos bo'ladi<sup>7</sup>. T.G.Chernova ham bir necha hukmlar yuzasidan jazo tayinlash institutining asosini shunday talqin qiladi<sup>8</sup>.

JK 60-moddasiga muvofiq, agar mahkum hukm chiqarilganidan keyin jazoni to'la o'tamasdan, yangi jinoyat sodir etsa, sud yangi hukm bo'yicha tayinlangan jazo muddatiga ilgarigi hukm yuzasidan o'talmay qolgan jazo muddatini to'la yoki qisman qo'shadi.

Bir necha hukm yuzasidan har xil turdagi jazolarni qo'shish yo'li bilan jazo tayinlashda ushbu Kodeksning 61-moddasida nazarda tutilgan qoidalarga amal qilinib, jazoning og'irroq turi uzil-kesil tayinlanadi.

Uchinchi guruhdagilar olimlar umumiy qoidalardan kelib chiqib fikr bildiradilar, ya'ni "Bir necha hukmlar yuzasidan jazo tayinlashda shaxsning sud hukmi bilan tayinlangan jazoni o'tash jarayonida yangi jinoyat sodir etganligi, jinoyatchining ijtimoiy xavflilik darajasi yuqoriligidan, retsidiv jinoyatchi shakllanayotganligidan,

<sup>4</sup> Очилов Х. Жиноят ҳукуки (Умумий қисм): Саволлар ва жавоблар. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2009. – Б.97.

<sup>5</sup> Қ.Розимова. Бир неча жиноят ва бир неча ҳукм юзасидан жазо тайинлаш. Монография. – Тошкент: ТДЮУ, 2020. – Б.132.

<sup>6</sup> Коряковцев В.В., Питулько К.В. Уголовное право: общая часть. – СПб: ООО «Питер Пресс», 2008. – С. 180.

<sup>7</sup> Уголовное право. Учебник / Под ред. Ветрова Н.И. и Люпунова Ю.И. – М.: Юриспруденция, 2002. – С.234.

<sup>8</sup> Чернова Т.Г. Назначение наказания по совокупности приговоров по уголовному праву России: Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата юридических наук. – Ижевск: Удмуртский государственный университет, 2001. – 24 с.



tayinlangan jazodan ko‘zlangan maqsadga erishilmaganidan, uning yangi jinoyat sodir etilishining oldini olish uchun yetarli bo‘lmaganligidan dalolat beradi”<sup>9</sup>. Yu.A.Krasikov “shaxsning bir jinoyati uchun jazoni o‘tab bo‘lmay turib, yangi jinoyat sodir etishi, shubhasiz, jazodan ko‘zlangan jinoyatning oldini olish maqsadiga erishilmaganligini, jinoyatchiga qo‘llanilgan jazo yetarli emasligini ko‘rsatadi” – deb yozadi<sup>10</sup>.

Darhaqiqat, shaxs tomonidan jazoni o‘tash vaqtida yangi jinoyat sodir etishi uning ijtimoiy xavflilik darajasi yuqoriligini anglatadi. Q.Rozimova ta’biri bilan aytganda bu hol “ushbu institutning bitta jinoyat uchun jazo tayinlashdan farqini belgilab beradi”<sup>11</sup>.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining “Sudlar tomonidan jinoyat uchun jazo tayinlash amaliyoti to‘g‘risida”<sup>12</sup> gi (2006 y. 03.02) №1-sonli qarorida “Jinoyat kodeksining 60-moddasi 1-qismida nazarda tutilgan bir necha hukmlar bo‘yicha jazo tayinlash qoidalari birinchi hukm e‘lon qilinganidan so‘ng, lekin o‘sha hukm bo‘yicha tayinlangan asosiy va qo‘shimcha jazolar to‘liq o‘talgunga qadar mahkum tomonidan yangi jinoyat sodir etilgan hollarda qo‘llaniladi”, deb tushuntirish beriladi<sup>13</sup>. Ushbu tushuntirishga qo‘shilmagan holda shuni ta’kidlash joizki, JK 60-moddasi 1-qismida nazarda tutilgan bir necha hukmlar bo‘yicha jazo tayinlash qoidalari birinchi hukm e‘lon qilinganidan so‘ng emas, balki hukm qonuniy kuchga kirganidan boshlab o‘sha hukm bo‘yicha tayinlangan asosiy va qo‘shimcha jazolar to‘liq o‘talgunga qadar mahkum tomonidan yangi jinoyat sodir etilgan hollarda qo‘llanilishi lozim, chunki JK 59-va 60-moddalaridagi chegarani aniq belgilanishi sud amaliyotidagi nomuvofiqliklarni bartaraf etadi.

Ayrim olimlar bir necha hukm yuzasidan jazo tayinlashni retsidiv jinoyat tushunchasiga muvofiq kelishini ta’kidlab, ya’ni shaxsning ilgari qasddan sodir etgan jinoyati uchun sudlanganidan keyin qasddan yangi jinoyat sodir etishi retsidiv jinoyat, deb aytilishini va retsidiv jinoyat bilan bir necha hukm tushunchalari qiyosiy tahlil qilinganida, retsidiv jinoyat tushunchasi faqat

<sup>9</sup> Уголовное право России. Общая часть: Учебник для вузов / Под ред. д.ю.н., проф. Н.Ф.Кузнецовой и д.ю.н. И.М.Тяжковой. – М.: Зерцало, 2005. – С.551–552.

<sup>10</sup> Комментарий к Уголовному кодексу Российской Федерации. 4–е изд. / Под общ. ред. В.М.Лебедева. – М.: Норма, 2005. – С. 168–169.

<sup>11</sup> Қ.Розимова. Ўзбекистон Республикаси Бош прокуратураси Академияси Қонун устуворлигини таъминлаш ва суд-хуқуқ тизимини янада ислоҳ қилишнинг устувор йўналишлари (мақолалар тўплами)2-жилд 2020 йил. Б. 240-244.

<sup>12</sup> Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2006 йил 03 февралдаги “Судлар томонидан жиноят учун жазо тайинлаш амалиёти тўғрисида”ги Қарори <http://www.lex.uz>

<sup>13</sup> Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг қарори, 2006 йил 3 февраль, № 1.



qasddan qilingan jinoyat uchun sudlanganidan keyin yana qasddan jinoyat sodir etganlikni nazarda tutishini, bir necha hukm tushunchasi esa, mahkumga nisbatan har qanday jinoyati (qasddan yoki ehtiyotsizliqdan qilinganidan qat'i nazar) uchun jazo tayinlashni nazarda tutishidan kelib chiqqan holda retsidiv jinoyat uchun jazo tayinlash tushunchasiga nisbatan bir necha hukm tushunchasi ancha kengroq hisoblansa-da, bir necha hukm yuzasidan jazo tayinlash tushunchasi ham bir qancha jinoyatlar sodir qilish doirasiga kirishini ta'kidlaydilar<sup>14</sup>.

Bir necha hukmlar yuzasidan jazo tayinlashning asosiy mezoni bo'lmish hukm chiqarilgan vaqtdan boshlab tayinlangan jazoni o'tagunga qadar sodir etilgan jinoyat, ya'ni ushbu vaqt oralig'ida sub'ektiv tomondan qasddan yoki ehtiyotsizlik oqibatida, ob'ektiv tomondan tugallangan g'ayriqonuniy tajovuz tushuniladi.

Bir jinoyati uchun sudlanib, hukm chiqqan, lekin hukm bo'yicha jazoni o'tamagan shaxs, birinchi hukm chiqqunga qadar boshlanib, hukm chiqqandan so'ng ham davom etgan surunkali va davomli jinoyat sodir etishda aybdor deb topilsa, ikkinchi hukm bo'yicha unga jazo tayinlashda ham sud Jinoyat kodeksining 60-moddasi qoidalariga rioya etishi lozim.

Shubhasiz, JK 60-moddasiga muvofiq, bir necha hukm yuzasidan jinoyatlar takrorlangan hollarda jazo tayinlash an'anaviy tajribaga zid emas. O'z navbatida, ilk bor sodir etilgan jinoyatga jazo tayinlashda esa JK 54 moddasida nazarda tutilgan umumiy asoslar tatbiq etiladi.

“Bir necha hukmlar bo'yicha jazo tayinlashning bosh omili sifatida “o'talmay qolgan jazo” mavjud deyish uchun quyidagi holatlarning mavjud bo'lishi talab etiladi:

- sodir qilgan jinoyati uchun shartli hukm qilingan shaxsning o'talmay qolgan sinov muddati;
- shartli ravishda muddatidan ilgari jazodan ozod qilingan va jazoning o'talmagan muddati;
- jazoni o'tash keyinga qoldirilgan holatlarda jazoning keyinga qoldirilgan muddati;
- oldingi sud hukmiga ko'ra tayinlangan jazoning shaxs tomonidan yangi jinoyat sodir etilgan vaqtdagi o'talmay qolgan qismi<sup>15</sup>.

<sup>14</sup> Н.Н.Крупская. [Назначение наказания по совокупности преступлений и приговоров](#) Ростов-на-Дону, 2007

<sup>15</sup> Коряковцев В.В., Питулько К.В. Уголовное право: общая часть. – СПб: ООО «Питер Пресс», 2008. – С. 180.



Oliy sudning “Sudlar tomonidan jinoyat uchun jazo tayinlash amaliyoti to‘g‘risida”gi Plenumi qaroriga ko‘ra quyidagi holatlarning mavjudligini oldingi hukm yuzasidan belgilangan jazoning o‘talmagan qismi deb hisoblanishi uchun asos bo‘ladi:

jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod etilganda - jazoning mahkum tomonidan o‘talmay qolgan qismi;

oldingi hukm bo‘yicha tayinlangan shartli hukmning butun muddati;

JPK 533-moddasi tartibida ijrosi kechiktirilgan jazo muddati<sup>16</sup>.

Ilgarigi hukm bo‘yicha tayinlanib, o‘talmay qolgan qo‘shimcha jazo bir necha hukmlar yuzasidan tayinlangan asosiy jazoga faqat qo‘shimcha jazo sifatida qo‘shilishi mumkin. Shuningdek, Oliy sud Plenumining yuqorida nomi keltirilgan qarorining 56-1-bandiga ko‘ra, agar jinoyatlar majmui yoki bir necha hukm yuzasidan jazo tayinlashda muayyan huquqdan mahrum qilish jazosi jinoyatlardan biri uchun hukmning birida asosiy jazo sifatida, boshqa jinoyat uchun hukmda qo‘shimcha jazo sifatida tayinlangan bo‘lsa, ular asosiy jazo uchun belgilangan muddat doirasida to‘liq yoki qisman qo‘shilishi lozim. Bunda uzil-kesil tayinlangan jazo asosiy jazo deb hisoblanadi.

Sud tomonidan hukm chiqarilgan vaqtdan boshlab tayinlangan jazoni o‘tab bo‘lgungacha bo‘lgan davrdagi sodir etilgan jinoyat uchun jazo tayinlashda sud O‘zbekiston Respublikasi jinoyat qonunchiligiga ko‘ra jazo tayinlashning umumiy asoslari, aybdorning shaxsi, jazoni yengillashtiruvchi va og‘irlashtiruvchi holatlarni, bundan tashqari, jazo tayinlashda shaxs tomonidan jinoyat avval tayinlangan jazo o‘tash davrida sodir etilganligini hisobga olishi lozim.

Mazkur holatlardan kelib chiqib, shuni alohida ta’kidlash joizki, bir necha jinoyat uchun jazo tayinlash bilan bir necha hukm yuzasidan jazo tayinlash masalasidagi asosiy muammo jinoyat sodir etilishidagi aniq chegara bo‘lib hisoblanadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. M.Usmonaliyev. Jazo tayinlash. – T.: TDYUI, 2003. – 92 b.
2. Spivak S.G. Naznachenije nakazaniya po sovokupnosti prestupleniy i sovokupnosti prigovorov. Dissertatsiya ... kandidata yuridicheskix nauk. – M., 2008. – S.21.

<sup>16</sup> Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2006 йил 03 февралдаги “Судлар томонидан жиноят учун жazo тайинлаш амалиёти тўғрисида”ги Қарори <http://www.lex.uz>



3. S.G.Spivak Naznacheniyе nakazaniya po sovokupnosti prestupleniy i sovokupnosti prigovorov. Avtoreferat dissertatsii na soiskaniye uchenoy stepeni kandidata yuridicheskix nauk po spetsialnosti: 12.00.08 – ugovnoye pravo i kriminologiya; ugovno-ispolnitelnoye pravo. - Moskva, 2007. – 10 s.
4. Ochilov H. Jinoyat huquqi (Umumiy qism): Savollar va javoblar. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2009. – B.97.
5. Q.Rozimova. Bir necha jinoyat va bir necha hukm yuzasidan jazo tayinlash. Monografiya. – Toshkent: TDYuU, 2020. – B.132.
6. Koryakovsev V.V., Pitulko K.V. Ugolovnoye pravo: obshaya chast. – SPb: OOO «Piter Press», 2008. – S. 180.
7. Ugolovnoye pravo. Uchebnik / Pod red. Vetrova N.I. i Lyapunova Yu.I. – M.: Yurisprudensiya, 2002. – S.234.
8. Chernova T.G. Naznacheniyе nakazaniya po sovokupnosti prigovorov po ugovnomu pravu Rossii: Avtoreferat dissertatsii na soiskaniye uchenoy stepeni kandidata yuridicheskix nauk. – Ijevsk: Udmurtskiy gosudarstvenniy universitet, 2001. – 24 s.
9. Ugolovnoye pravo Rossii. Obshaya chast: Uchebnik dlya vuzov / Pod red. d.yu.n., prof. N.F.Kuznetsovoy i d.yu.n. I.M.Tyajkovoy. – M.: Zersalo, 2005. – S.551–552.
10. Kommentariy k Ugolovnomu kodeksu Rossiyskoy Federatsii. 4–ye izd. / Pod obsh. red. V.M.Lebedeva. – M.: Norma, 2005. – S. 168–169.
11. Q.Rozimova. O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi Akademiyasi Qonun ustuvorligini ta’minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilishning ustuvor yo’nalishlari (maqolalar to’plami) 2-jild 2020 yil. B. 240-244.
12. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2006 yil 03 fevraldagi “Sudlar tomonidan jinoyat uchun jazo tayinlash amaliyoti to’g’risida”gi Qarori <http://www.lex.uz>
13. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining qarori, 2006 yil 3 fevral, № 1.
14. N.N.Krupskaya. Naznacheniyе nakazaniya po sovokupnosti prestupleniy i prigovorov Rostov-na-Donu, 2007
15. Koryakovsev V.V., Pitulko K.V. Ugolovnoye pravo: obshaya chast. – SPb: OOO «Piter Press», 2008. – S. 180.
16. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2006 yil 03 fevraldagi “Sudlar tomonidan jinoyat uchun jazo tayinlash amaliyoti to’g’risida”gi Qarori <http://www.lex.uz>

